



TURKMAN TILLI SINFLARDA O‘QISH VA YOZMA SOVODXONLIK DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

ANNAYEVA MAYA RADJAPAYEVNA

Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta‘lim turkman tilli guruhlarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarini qo‘llanilishi samaradorligi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib unda muloqot darslari, reproduktiv usullari, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalalariga atroflicha fikr yuritilgan. Shu bilan birga metod va usullar orqali pedagogik texnologiya va kompetensiyalardan foydalanishning shakllari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: DTS, pedagogik texnologiya, reproduktiv usul, everist usuli, ochiq muloqot usuli, “Mozayka” usuli, “Kubik-rubik” usuli, motiv.

Mamlakatimizda ta‘lim tizmi va uning mazmunini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib so‘ngi yillarda bir qator o‘zgarishlar: DTS o‘quv dasturini yangi tahririda tajriba sinovlari amalga oshirilmoqda. Bu sohada pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, o‘quv predmetlarining integratsiyasining rivojlanishi, hamkorlik texnologiyasi so‘ngi yillarda ta‘lim tizmi rivojiga ijobiy ta‘sir qilomqda. Bilimlarni integratsiyalash muammosi bo‘yicha tatqiqot olib borgan olimlar Ya.A.Kamenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalozsi, K.D.Ushinskiy, P.F.Kapterov, I.D.Zverev va boshqa olimlarning ilmiy-amaliy tatqiqotlarining amaliyotga tadbiq qilinishi zamonaviy pedagogikada bu masala katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Shunday bo‘lsada, tatqiqotimiz davomida olib borgan tajriba-sinovlarimizda shunga guvoh bo‘ldikki, ba‘zi ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar o‘quvchilarning ta‘lim olishida biroz murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Quyida biz bu muammolarni o‘rganib guruhlashga harakat qildik:

Birinchiidan, mamlakatimiz ko‘p millatli hamda bir birini takrorlamaydigan sheva va lahja unsurlariga ega ekanligi;

Ikkinchiidan, aholining ijimoiy turmush tarzi, yashash sharoiti o‘rtasida tafovutlarning mavjudligi;

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson



o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda ta'lim qaysi tilda olib borilishiga qarab pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalanish mumkin. Bunda bolaning qiziqishlari, yashash hududi, millati va lahjasidan kelib chiqib darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada ta'lim tizmini samaradorligini oshirish bo'yicha tatqiqot olib borgan olim I.Y. Lerner ona tili va o'qish savodxonligi darslarini quydagi usullar orqali o'qitishni tavsiya qiladi:

- 1) Xabar berish – tushuntirish usuli;
- 2) Reproduktiv usul;
- 3) Masalani bayon etish usuli;
- 4) Quyidan yuqoriga yoki evrestik usul;
- 5) Ochiq muloqot usul. [1. 20]

Ona tili va o'qish savodxonligi fan sifatida ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning boshqa fanlar bilan aloqalari nafaqat tarkibda. Ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik, olimlar ta'kidlaganidek, "bir ob'ekt boshqa ob'ektdagi savol va muammolarni hal qilishda vosita bo'lib xizmat qiladi"[1.80]. Misol uchun matematika-ona tili; ona tili-rus tili; ona tili-rasm darslari va boshqa fanlar bilan mavzular doirasida integratsiyalashtirish muhim ahamiyatga ega.


Shu jihatlarni inobatga olgan holda quyida integratsiyalashgan pedagogik o'qitish texnologiyalarini tavsiya qilamiz:

“Mozayka” metodi - bunda o'quvchilar guruhlariga birlashtiriladi. Har bir guruhga turli xil jonli hayvonlar yoki tabiat tasviri tushirilgan rasm bo'laklari beriladi. U bo'laklar ortiga harflar yashringan bo'ladi. O'quvchilar shu harflarni o'z o'rniga qo'yib so'zlar hosil qiladi. Topshiriq uchun ma'lum vaqt beriladi va kim birinchi bo'lib mozaykani bajarsa o'sha guruh g'olib deb topiladi. Shundan so'ng o'qituvchi shart qanchalik tezlikda va qanchalik to'g'ri bajarilganligini hisobga olgan holda guruhlarini baholaydi. Ushbu o'yin orqali o'quvchilarda faollik va ziyraklik chaqqonlik ko'nikmalari shakllanadi, o'zlari mustaqil so'zlar tuzish va talaffuz qilish orqali masalda berilgan tarbiyaviy mazmunni yaxshi anglab yetadilar. Qolaversa, sog'lom musobaqaviy muhit shakllanadi. Bu esa o'quvchilarning mavzuga va fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. “Mustaqil topshiriqlar” yoki “O'qish texnikasini rivojlantirish” uchun berilgan topshiriqlarda esa “Kubik-rubik” o'yinidan ham qo'llash mumkin.



“Kubik-rubik” o‘yini - ushbu o‘yinni o‘tkazishda bizga 4 tomoni to‘rt xil rangli (yashil, sariq, ko‘k, pushti) hamda bir tomonida “+1” va yana bir tomonida “-1” keltirilgan kubikcha hamda xuddi shu kubikda aks etgan ranglar kanvertchalar yoki savatchalar kerak bo‘ladi. O‘yinni o‘tkazish uchun o‘quvchilar ikki guruhga birlashtiriladi. So‘ng har bir guruhdan bitta-bittadan o‘quvchilar doskaga chiqarilib kubikni aylantirib stol yuzasiga tashlaydilar. Qaysi rang tushsa o‘sha rangdagi konvert yoki savatchadan topshiriq qog‘ozini oladi. Agar qaysi bir guruhga “-1” tushsa guruh to‘plagan baldan 1 ball olib qo‘yiladi, “+1” tushsa o‘sha guruhga 1 ball qo‘shib beriladi.

Bunda kubikchalar ortiga savollar yoki so‘zlar qo‘yilishi mumkin. Agar 4-sinf o‘quvchilari orasida tashkil qilinsa, so‘zlar orqali gaplar tuzdirish mumkin. Bu usul nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki yuqori 5-6-sinflarda qo‘llansa ham yuqori natija beradi. Bu usul o‘quvchilardan chaqqonlik, hozirjavoblik va jamoaviy tarzda ishlash ko‘nikmalarini shakillantiradi. Qolaversa, bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtirib mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.



Shu jihatdan qaraganda, ta‘lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyosdir. “Didaktik o‘yinlar ta‘lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi. O‘qish



motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi" [4.127].

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda quyidagi yondashuvlarga amal qilishimiz lozim: ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;

- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi[5.160].

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi. Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning



uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonova N., O'rinboyeva L. Ona tili (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma) 2-sinflar uchun. – Toshkent, “Ehtremum-press”, 2014.
2. Garayev N., Garayev Y., Maktablarda turkman tilini o'qitish usullari, - Ashxabot, “TDKP-nashriyoti”, 2004.
3. Masharipova U., Umarova M., Boynazarova D., Nabiyeva M. Ona tili. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. 4-sinflar uchun. -Toshkent, “Ehtremum-press”, 2017.
4. Mavlonova R. A. Boshlang'ich ta'lim integratsiyalashgan pedagogikasi (o'quv qo'llanma), - Toshkent, “Ilm – ziyo”. 2009.
5. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent, Tafakkur, 2011.